

## 2024– yilning yanvar–sentabr oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024– yilning yanvar – sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiyligi hajmi 28 908,1 mlrd. so'mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 28 674,8 mlrd. so'mni (101,7 %), o'rmon xo'jaligi – 133,2 mlrd. so'mni (103,1 %), baliqchilik xo'jaligi – 100,1 mlrd. so'mni (95,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.





## Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, % da

**01**

Dehqonchilik  
va chorvachilik,  
ovchilik va ushbu  
sohalarda ko'rsatilgan  
xizmatlar – **101,7 %**

**02**

O'rmon xo'jaligi  
**103,1 %**

**03**

Baliqchilik xo'jaligi  
**95,8 %**

2024- yilning yanvar – sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 101,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 101,7 % ni, o'rmon xo'jaligi – 103,1 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 95,8 % ni tashkil qildi.

**Ma'lumot uchun:**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida tarmoqning ijobjiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2023 – yilning mos davriga nisbatan yugori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

✓ <i>Pilla</i>	— 116,3 %
✓ <i>Meva va rezavorlar</i>	— 107,7 %
✓ <i>Jami don</i>	— 106,6 %
✓ <i>Oziqbob poliz</i>	— 105,3 %
✓ <i>Sabzavotlar</i>	— 105,2 %



**Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining taqsimlanishi**



99,2 %



0,5 %



0,3 %

Dehqonchilik  
va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda  
ko'rsatilgan xizmatlar

99,2 %

O'rmon xo'jaligi

0,5 %


Baliqchilik xo'jaligi

0,3 %

2024- yilning yanvar – sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining 99,2 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2023- yilning yanvar – sentabr oylarida 99,2 %), 0,5 % i - o'rmon xo'jaligi (0,5 %), 0,3 % i baliqchilik xo'jaligi (0,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.



## Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2024– yilning yanvar– sentabr oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (3 712,0 mlrd. so'm) va Buxoro (3 484,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (75,0 mlrd. so'm), Buxoro shahri (324,0 mlrd. so'm) va Qorovulbozor tumani (812,0 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.


Viloyat ko'rsatkichidan (101,7 %) yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (106,9 %), Romitan (103,6 %), G'ijduvon (103,3%), Peshku (103,0 %) va Buxoro (102,9 %) tumanlarida kuzatildi. Qorovulbozor (101,4 %), Jondor (101,2 %), Olot (100,6 %), Kogon (100,3 %), Qorako'l (100,2 %), Shofirkon (100,2 %), Vobkent (100,1 %) tumanlarida va Kogon shaharda (100,1 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush Jondor (12,8 %), Buxoro (12,1 %), G'ijduvon (11,0 %) va Qorako'l (9,8 %) tumanlariga kuzatildi. Aksincha kam ulushga ega hududlar Kogon shahar (0,3 %), Buxoro shahar (1,1 %), Qorovulbozor (2,8 %) va Kogon (6,6 %) tumanlariga kuzatildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**

2024– yilning yanvar– sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 28 468,1 mlrd. so'mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 13 341,5 mlrd. so'mni (98,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 15 126,6 mlrd. so'mni (104,6 %) tashkil qildi.



**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish  
hajmida dehqonchilik va chorvachilik  
mahsulotlarining ulushi, (% da)**



**46,9 %**

**Dehqonchilik  
mahsulotlari**




**53,1 %**

**Chorvachilik  
mahsulotlari**



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)**



**Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**01 ▶ Qorovulbozor**

**02 ▶ Romitan**

**03 ▶ Buxoro**

**Kogon sh. ◀ 01**

**Kogon ◀ 02**

**G'ijduvon ◀ 03**



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi  
mahsulotlarining xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



70,5 %

Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari



25,1 %

Fermer  
xo'jaliklari



4,4 %

Qishloq xo'jaligini amalga  
oshiruvchi tashkilotlari

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umu-miy hajmining 70,5 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,1 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,4 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amal-ga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




*Ma'lumot uchun:*

Asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- |                         |          |
|-------------------------|----------|
| ✓ Go'sht (tirik vaznda) | — 87,1 % |
| ✓ Sog'ib olingan sut    | — 91,7 % |
| ✓ Sabzavotlar           | — 79,9 % |
| ✓ Kartoshka             | — 83,5 % |



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining  
hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida  
taqsimlanishi, (% da)**



2024-yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (50,6 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Qorako'l tumanida (81,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahrida (68,3 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Kogon tumanida (13,1 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Kogon shaharda (31,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qorako'l tumanida (1,1 %) qayd etildi.




## Dehqonchilik

2024–yilning yanvar – sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 13 341,5 mlrd. soʻmni yoki 2023–yilning mos davriga nisbatan 98,3 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiylajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 46,9 % ni tashkil qildi.

### Donli ekinlar



### Yetishtirilgan mahsulotning xoʼjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi




2024–yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan 568,0 ming t. donli ekinlar (2023–yilning yanvar – sentabriga nisbatan 6,6 % ga koʼp) yetishtirildi. Jami don yetishtirish koʼrsatkichlarini xoʼjalik toifalari boʼyicha tahlili, jami don yetishtirish umumiylajmida 77,1 % i fermer xoʼjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʼrsatdi.




## Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega hududlar**

Jondor tumani	<b>13,7 %</b>
Romitan tumani	<b>10,4 %</b>
Vobkent tumani	<b>10,2 %</b>
Qorako'l tumani	<b>9,6 %</b>


**Past ulushga ega hududlar**

Buxoro shahri	<b>0,2 %</b>
Kogon tumani	<b>5,7 %</b>
Buxoro tumani	<b>7,3 %</b>
Qorovulbozor tumani	<b>8,0 %</b>




## Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomo-nidan 710,5 ming t. sabzavotlar (2023– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 5,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiylajmining 79,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.




## Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish

**hajmi, ming tonna**




**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Buxoro tumani	14,6 %
Jondor tumani	12,0 %
Qorako'l tumani	11,2 %
Peshku tumani	10,4 %
Kogon shahri	0,1 %
Qorovulbozor tumani	2,7 %
Buxoro shahri	2,8 %
Kogon tumani	4,0 %

## Kartoshka


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2024– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 244,1 ming t. kartoshka (2023– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 3,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, kartoshka yetishtirish umumiy hajmining 83,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to‘g’ri kelishini ko‘rsatdi.



## Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega hududlar**


Buxoro tumani	14,3 %
Jondor tumani	13,6 %
Peshku tumani	12,6 %
G'ijduvon tumani	9,6 %

**Past ulushga ega hududlar**


Kogon shahri	0,2 %
Buxoro shahri	0,7 %
Qorovulbozor tumani	1,3 %
Shofirkon tumani	5,5 %



## Poliz



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2024– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 132,2 ming t. poliz (2023– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 5,3 % ga ko'p) ekinlari yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining 73,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.




## Hududlar bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**




### Yuqori ulushga ega hududlar

### Past ulushga ega hududlar


Qorako'l tumani	<b>12,4 %</b>	Buxoro shahri	<b>0,5 %</b>
Buxoro tumani	<b>12,3 %</b>	Kogon tumani	<b>1,6 %</b>
Romitan tumani	<b>12,0 %</b>	Shofirkon tumani	<b>4,6 %</b>
Olot tumani	<b>12,0 %</b>	Vobkent tumani	<b>4,9 %</b>

## Meva va rezavorlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2024– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 251,7 ming t. meva va rezavorlar (2023– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 7,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 46,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha  
meva va rezavorlar  
yetishtirish**

**hajmi, ming tonna**

**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega hududlar**


Jondor tumani	<b>19,0 %</b>
Buxoro tumani	<b>14,8 %</b>
Romitan tumani	<b>11,0 %</b>
G'ijduvon tumani	<b>10,0 %</b>

**Past ulushga ega hududlar**


Buxoro shahri	<b>0,9 %</b>
Qorovulbozor tumani	<b>1,4 %</b>
Kogon tumani	<b>2,7 %</b>
Olot tumani	<b>3,5 %</b>

## **Uzum**


**Hajmi, ming t.**



**Oʼsish surʼati**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




2024– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 181,6 ming t. uzum (2023– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 3,6 % ga koʼp) yetishtirildi. Uzum yetishtirish koʼrsatkichlarini xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlili, uzum yetishtirish umumiyligi hajmidan 48,8 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʼrsatdi.



## Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar

Buxoro tumani	<b>20,3 %</b>
Jondor tumani	<b>15,1 %</b>
Shofirkon tumani	<b>12,6 %</b>
Romitan tumani	<b>11,4 %</b>


### Past ulushga ega hududlar

Buxoro shahri	<b>0,4 %</b>
Qorovulbozor tumani	<b>0,8 %</b>
Kogon tumani	<b>1,8 %</b>
Olot tumani	<b>2,8 %</b>



## Chorvachilik

2024–yilning yanvar – sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 15 126,6 mlrd. so‘mni yoki 2023–yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 53,1 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to’ldirishga imkon yaratdi.


2024–yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 219,4 ming t. go‘sht (2023–yilning yanvar – sentabriga nisbatan 5,0 % ga ko‘p), 796,3 ming t. sut (4,4 % ga ko‘p), 420,9 mln. dona tuxum (3,6 % ga ko‘p), 3,3 ming t. jun (5,1 % ga ko‘p), 494,4 ming dona qorako‘l teri (3,7 % ga ko‘p) yetishtirildi va 3,8 ming t. baliq (4,1 % ga kam) ovlandi.

### Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik  
toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2024- yilning yanvar - sentabr oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 191,0 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 87,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yilda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 104,3 % va fermer xo'jaliklarda 106,3 % o'sish kuzatildi.




**Hududlar bo'yicha  
go'sht (tirik vaznda)  
yetishtirish**

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega hududlar**

G'ijduvon tumani	12,1 %
Jondor tumani	11,4 %
Kogon tumani	10,8 %
Buxoro tumani	10,4 %


**Past ulushga ega hududlar**

Kogon shahri	1,0 %
Buxoro shahri	1,4 %
Qorovulbozor tumani	2,6 %
Olot tumani	7,4 %




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 729,9 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 8,3 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 101,8 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 124,0 % o'sish kuzatildi.



## Hududlar bo'yicha sut yetishtirish




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani      11,7 %	Buxoro shahri      0,4 %
Buxoro tumani      11,6 %	Qorovulbozor tumani      1,9 %
G'ijduvon tumani      11,5 %	Kogon tumani      5,1 %
Shofirkon tumani      11,2 %	Olot tumani      7,1 %




## Tuxum



Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik  
toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 204,8 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 48,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarda qayd etildi.


2024- yilning yanvar- sentabr oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 92,2 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 21,9 % i fermer xo'jaliklarda kuzatildi.

2023- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarda 2,7 % va qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,3 % o'sish kuzatildi.




## Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish

**hajmi, mln. dona**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar

Jondor tumani

**23,9 %**

Kogon tumani

**17,9 %**

Qorako'l tumani

**10,7 %**

G'ijduvon tumani

**8,6 %**

### Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri

**0,1 %**

Buxoro shahri

**1,2 %**

Qorovulbozor tumani

**2,4 %**


Olot tumani

**4,3 %**




## Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 2 101,4 tonna yoki umumiy ovlangan hajmidan 55,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2024- yilning yanvar - sentabr oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 355,5 tonna yoki umumiy ovlangan hajmidan 9,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida kuzatildi.

2023- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 7,2 % va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 10,1 % o'sish kuzatildi.



## Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
Shofirkon tumani	<b>14,5 %</b>	Buxoro shahri	<b>1,1 %</b>
Olot tumani	<b>13,9 %</b>	Qorovulbozor tumani	<b>3,4 %</b>
Buxoro tumani	<b>12,9 %</b>	Peshku tumani	<b>5,6 %</b>
Jondor tumani	<b>10,3 %</b>	Kogon tumani	<b>5,9 %</b>



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 18,1 % i fermer xo'jaliklariga, 74,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiyligi sonidan 46,9 % i fermer xo'jaliklariga, 35,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 25,4 % i fermer xo'jaliklariga, 36,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 38,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 370,8 mingtaga yetdi.


2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 29,2 mingtaga (2,2 %) ko‘paydi.

### **Yirik shoxli qoramollar**


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Yirik shoxli qoramollar

**bosh son, ming bosh**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

G'ijduvon tumani	11,9 %
Qorako'l tumani	11,3 %
Shofirkon tumani	10,8 %
Jondor tumani	10,3 %

**Past ulushga ega hududlar**


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,5 %
Qorovulbozor tumani	1,7 %
Kogon tumani	6,7 %

2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 447,0 mingtaga yetdi.


2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 8,2 mingtaga (1,9 %) ko‘paydi.

### Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Sigirlar bosh soni

**bosh son, ming bosh**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

Qorako'l tumani	14,2 %
G'ijduvon tumani	12,0 %
Jondor tumani	10,7 %
Shofirkon tumani	10,1 %

**Past ulushga ega hududlar**


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,5 %
Qorovulbozor tumani	1,9 %
Kogon tumani	7,4 %

2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 466,5 mingtaga yetdi.

2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilalar bosh soni – 58,4 mingtaga (2,4 %) ko‘paydi.

### **Qo‘y va echkilalar**


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 74,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.




## Qo'y va echkilar

**bosh son, ming bosh**



**Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

Jondor tumani	14,4 %
G'ijduvon tumani	12,9 %
Qorako'l tumani	11,9 %
Peshku tumani	11,1 %

**Past ulushga ega hududlar**


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,7 %
Kogon tumani	3,9 %
Vobkent tumani	4,4 %

2024– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiyl bosh soni 8 192 taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘ja-liklarda otlar bosh soni – 569 taga (7,5 %) ko‘paydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 46,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.




## Otlar bosh soni

**bosh son, bosh**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

Romitan tumani	<b>16,8 %</b>
Peshku tumani	<b>15,5 %</b>
G'ijduvon tumani	<b>13,5 %</b>
Jondor tumani	<b>12,4 %</b>

**Past ulushga ega hududlar**


Buxoro shahar	<b>0,7 %</b>
Olot tumani	<b>2,4 %</b>
Kogon tumani	<b>2,8 %</b>
Vobkent tumani	<b>4,3 %</b>

2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 146,9 mingtaga yetdi.


2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 288,0 mingtaga (3,7 %) ko‘paydi.

## Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024–yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g’risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 38,2 % i qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga to‘g’ri kelishini qayd etish lozim.




## Parrandalar

**bosh son, ming bosh**



**Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

Jondor tumani	<b>25,4 %</b>
G'ijduvon tumani	<b>14,2 %</b>
Kogon tumani	<b>12,8 %</b>
Buxoro tumani	<b>12,2 %</b>

**Past ulushga ega hududlar**

Kogon shahar	<b>1,3 %</b>
Buxoro shahar	<b>2,1 %</b>
Peshku tumani	<b>2,7 %</b>
Qorovulbozor tumani	<b>3,2 %</b>

Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi



• 65- 223-44-45